INNOVATIVE PUBLICATION

Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation

Vol.4 №11 (2026). NOVEMBER

innovativepublication.uz

THE STUDY OF AMIR TEMUR'S LIFE AND MILITARY CAMPAIGNS IN WESTERN SCHOLARSHIP

Scientific Supervisor: Mahliyo Turdixo'jayeva, Senior Lecturer, PhD in History, Department of History of the Peoples of Central Asia

First-Year Student, Department of History of the Peoples of Central Asia, Tashkent State University of Oriental Studies

Guljaxon Turg'unpulatova

E-mail: guljaxonturgunpulatova@gmail.com

Tel.: +998 99 191 68 17

AMIR TEMUR FAOLIYATINING VA HARBIY HARAKATLARINING G'ARB TADQIQOT DOIRASIDA O'RGANILISHI

Ilmiy rahbar: Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrasi kata o'qituvchi t.f.f.d. (PhD) **Mahliyo Turdixo'jayeva**

TDSHU, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrasi 1-bosqich talabasi
Guljaxon Turg'unpulatova
Elektron manzil: **guljaxonturgunpulatova@gmail.com**
Tel: +998991916817

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur faoliyati hamda uning harbiy yurishlari g'arb tadqiqotchilari tomonidan qanday o'rganilgani tahlil qilinadi. Xususan Yevropa va Amerika tarixshunosligida Temur shaxsiga berilgan baholar, uning strategik fikrlashi, harbiy san'ati va davlat boshqaruvi borasidagi qarashlar ilmiy jihatdan ko'rib chiqiladi. Shuningdek, g'arb olimlarining asarlarida Temur obrazining shakllanishi, u haqdagi ijobiy va salbiy talqinlar hamda ularning tarixiy manbalarga asoslanish darajasi yoritib beriladi. Shu bilan birga, g'arb ilmiy adabiyotlarida uchraydigan metodologik yondashuvlar va ularning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Temuriylar davlati, harbiy yurishlar, strategiya, taktika, G'arb tarixshunosligi, Yevropa olimlari, ilmiy tadqiqotlar, tarixiy manbalar, Temur tuzluklari, harbiy san'at, siyosiy faoliyat, imperiya boshqaruvi.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.4 №11 (2026). NOVEMBER
innovativepublication.uz

Аннотация: В данной статье анализируется деятельность Амира Темура, а также то, как его военные походы изучались западными исследователями. В частности, рассматриваются оценки личности Темура в европейской и американской историографии, его стратегическое мышление, военное искусство и взгляды на государственное управление с научной точки зрения.
Кроме того, освещается формирование образа Темура в трудах западных ученых, положительные и отрицательные интерпретации его личности, а также степень их опоры на исторические источники.Вместе с тем анализируются методологические подходы, встречающиеся в западной научной литературе, и их специфические особенности**.**
Ключевые слова: Амир Темур, государство Тимуридов, военные походы, стратегия, тактика, западная историография, европейские учёные, научные исследования, исторические источники, «Уложения Темура» военное искусство, политическая деятельность, управление империей.
Abstract: This article analyzes the activities of Amir Temur and examines how his military campaigns have been studied by Western scholars. In particular, it explores the assessments of Temur's personality in European and American historiography, as well as his strategic thinking, military art, and views on state governance from a scholarly perspective.Furthermore, the article highlights the formation of Temur's image in the works of Western researchers, including both positive and negative interpretations, and evaluates the extent to which these are based on historical sources.In addition, the study analyzes the methodological approaches found in Western academic literature and their distinctive features.
Keywords: Amir Temur, Timurid state, military campaigns, strategy, tactics, Western historiography, European scholars, scientific research, historical sources, Temur's Code (Temur Tuzuks), military art, political activity, imperial governance.

Tarixda chuqur iz qoldirgan buyuk sarkardalardan biri Amir Temur shaxsiyati va faoliyati asrlar davomida o‘rganib kelinmoqda. Ayniqsa uning harbiy yurishlari, strategik mahorati va davlat boshqaruvi tizimi nafaqat Sharq balki G‘arb tarixshunosligida ham muhim rol o‘ynaydi. G‘arb olimlari tomonidan Amir Temur faoliyatiga berilgan baholar turlicha bo‘lib, ba’zan buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatida e’tirof etilsa, boshqa holatlarda esa uning yurishlari tanqidiy ruhda talqin qilinadi. Amir Temur 1336-yil 9-aprelda Movorounahr hududining siyosiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lgan Shahrisabz vohasiga yaqin Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida tavallud topgan. 1360-1365-yillarda Movorounahr hududiga siyosiy

parokandalik kuchli edi. Shu vaziyatda Amir Temur asta-sekin o‘z mavqeini mustahkamlab raqiblariga qarshi kurash olib bordi. 1370-yilda Samarqand shahrini egallab o‘z davlatiga asos soldi va uni poytaxtga aylantirdi. Amir Temur shaxsiyati va uning harbiy faoliyati G‘arb tarixshunosligida uzoq yillar davomida turli xil yondashuvlar asosida o‘rganib kelinmoqda. Ayniqsa, uning harbiy yurishlari, strategiyasi va jang olib borish uslublari Yevropa olimlari diqqat markazida bo‘lgan muhim masalalardan biridir. Dastlabki G‘arb tadqiqotlarida Amir Temur shaxsiga nisbatan salbiy qarashlar ustunlik qilgan. XVIII–XIX asr tarixchilari, jumladan Edward Gibbon kabi olimlar uni asosan bosqinchi va vayronkor hukmdor sifatida tasvirlashgan. Bu yondashuv ko‘proq Sharq mamlakatlariga nisbatan mavjud bo‘lgan biryoqlama qarashlar, ya’ni orientalistik yondashuv ta’sirida shakllangan edi. Natijada Temurning harbiy yurishlari faqat talon-taroj va zo‘ravonlik nuqtai nazaridan baholangan. Biroq XX asrga kelib G‘arb tarixshunosligida yangi ilmiy yondashuvlar paydo bo‘ldi. Zamonaviy tadqiqotchilar Amir Temurning faoliyatini chuqurroq va xolisroq o‘rganishga harakat qila boshladilar.

Masalan, Marshall Hodgson, Beatrice Forbes Manz va Maria Subtelny kabi olimlar Temurning harbiy yurishlarini faqat bosqinchilik sifatida emas, balki aniq siyosiy va strategik maqsadlarga ega bo‘lgan faoliyat sifatida talqin qiladilar. G‘arb tadqiqotlarida Amir Temurning harbiy san’ati bir necha asosiy jihatlar orqali tahlil qilinadi. Avvalo, uning strategik fikrlashi yuqori baholanadi. Temur har bir yurishni puxta rejalashtirgan, jangdan oldin keng ko‘lamli razvedka ishlarini olib borgan va dushman kuchlari haqida to‘liq ma’lumot to‘plashga intilgan. Bu esa unga harbiy ustunlikni ta’minlagan. Shuningdek uning qo‘shin tuzilmasi ham alohida e’tiborga loyiqdir. Temur qo‘shini qat’iy tartib asosida tashkil etilgan bo‘lib, o‘nlik, yuzlik va minglik tizimiga asoslangan. Bu tizim mo‘g‘ul harbiy an’analariga tayangan holda yanada takomillashtirilgan edi. Natijada qo‘shin boshqaruvi samarali va tezkor amalga oshirilgan. Temurning harbiy faoliyatida psixologik urush usullari ham muhim o‘rin egallagan. U ayrim hollarda dushmanni qo‘rqitish va ruhiy bosim o‘tkazish orqali jangsiz g‘alaba qozonishga erishgan. G‘arb tarixchilari bu usulni uning harbiy strategiyasining ajralmas qismi sifatida baholaydilar. Bundan tashqari Amir Temur qo‘shinining yuqori harakatchanligi ham alohida ta’kidlanadi. Uning askarlari uzoq masofalarni tez bosib o‘tishga qodir bo‘lgan, bu esa kutilmagan hujumlar uyushtirish imkonini yaratgan. Aynan shu omil Temurning ko‘plab janglarda ustun kelishiga sabab bo‘lgan. G‘arb tadqiqotchilari Temurning eng muhim harbiy yurishlarini ham batafsil o‘rganadilar. Xususan, Oltin O‘rda hukmdori To‘xtamishxon bilan olib borilgan kurashlar Yevroosiyo hududidagi siyosiy vaziyatga katta ta’sir ko‘rsatgan. Hindistonga

qilgan yurishi esa iqtisodiy va strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Ayniqsa 1402-yilda Usmonli sultoni Boyazid I ustidan qozonilgan g‘alaba Yevropa tarixida muhim burilish nuqtasi sifatida baholanadi. So‘nggi tadqiqotlarga ko‘ra, Temur tomonidan barpo etilgan imperiya tasodifiy yurishlar natijasi emas, balki markazlashgan hokimiyatni shakllantirishga qaratilgan ongli siyosiy strategiya bo‘lgan.

Xususan, Maria Subtelny Temur hokimiyatini “karizmatik hokimiyatga asoslangan tizim” deb ta’riflaydi. Uning fikricha, Temur harbiy kuch bilan bir qatorda shaxsiy sadoqat tizimini yaratib, yirik siyosiy tuzilmani shakllantira olgan. G‘arb tarixchilarining yangi yondashuvlarida Temurning harbiy yurishlari iqtisodiy omillar bilan ham bog‘lab tushuntiriladi. Ya’ni Temur davlati dastlab “o‘lja iqtisodiyoti”ga asoslangan ko‘chmanchi imperiya bo‘lib, keyinchalik asta-sekin o‘troq, markazlashgan davlat tizimiga o‘tgan. Bu jarayonni Marshall Hodgson va Subtelny kabi olimlar davlat shakllanishining muhim bosqichi sifatida baholaydilar. Yana bir muhim jihat G‘arb tadqiqotchilari Temurning harbiy strategiyasini tizimli va ongli boshqaruv modeli sifatida ko‘rsatadi. Masalan, zamonaviy ilmiy izlanishlarda uning harbiy yurishlari quyidagi elementlarga asoslanganligi ta’kidlanadi harbiy harakatchanlik (tez yurish va kutilmagan hujumlar), razvedka va ma’lumot to‘plash tizimi, psixologik bosim orqali dushmanni sindirish. Ba’zi G‘arb mualliflari Temurning shafqatsizligini ham strategiyaning bir qismi sifatida talqin qiladi. Ya’ni, zo‘ravonlik orqali kelajakdagi qarshiliklarni kamaytirish maqsadi ko‘zlangan. Shu sababli uning harbiy yurishlari faqat vayronkorlik emas, balki qo‘rqitish orqali boshqaruvni mustahkamlash vositasi bo‘lgan. G‘arb tarixshunosligida Temur shaxsiga berilgan baholar ham keskin o‘zgarib borgan. Ilgari u asosan “vahshiy bosqinchi” sifatida tasvirlangan bo‘lsa, hozirgi ilmiy qarashlarda u “murakkab va ko‘p qirrali shaxs” sifatida baholanadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, ba’zi tarixchilar uni “qatl etuvchi hukmdor”, boshqalari esa “buyuk amir” sifatida tasvirlagan. Masalan, Beatrice Forbes Manz o‘z tadqiqotlarida Temur faoliyatini chuqur tahlil qilib, uni tarixdagi eng murakkab va tushunilishi qiyin shaxslardan biri sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, Temur nafaqat harbiy sarkarda, balki o‘z davrining siyosiy tizimini tubdan o‘zgartirgan yetakchi bo‘lgan. Shuningdek, G‘arb manbalarida Temurning harbiy yurishlari global tarix kontekstida ham baholanadi. U Yevrosiyo hududida katta siyosiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan so‘nggi yirik sarkarda zabt etuvchi sifatida e’tirof etiladi. Uning yurishlari natijasida keyingi davrlarda paydo bo‘lgan markazlashgan imperiyalar uchun zamin yaratilgan.

Ayrim G‘arb tarixchilari, masalan fransuz olimi Rene Grousset, Temurning harbiy

yurishlarini tahlil qilib, u doimiy ravishda bir hududni qayta-qayta zabt etishga majbur bo‘lganini ta’kidlaydi. Bu esa uning imperiyasi doimiy harbiy bosim orqali ushlab turilganini ko‘rsatadi. Amir Temur tuzgan qo‘shin ko‘plab mamlakatlarni zabt etishda son jihatdan aniq va puxta tashkil etilganligi bilan o‘z davrining ko‘plab qo‘shinlardan ustun turgan. Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Xorazmshohlar, Saljuqiylar, Chingiziylar qo‘shini jangovar tartibidan farqli bo‘lib, yetti qism-qo‘lga ajratilgan. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”sida Sohibqiron harbiy jang usuli yetti qism-qo‘l tuzilishi to‘g‘risida to‘liq ma’lumot berilgan. Sohibqiron o‘z qo‘shini qanotlarini jang chog‘ida dushman hujumidan muhofaza qilish va aksincha g‘anim kuchlarini yon tomondan aylanib o‘tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism “kunbul” yoki “kumbul”, ba’zi manbalarda qanbulning joriy etilishi-harbiy san’at rivojiga qo‘shgan ulkan xizmatlaridan biri bo‘ldi. Bunday jang usulidan faqat besh asr o‘tib XIX asrning atoqli lashkarboshisi Napaleon Bonapart armiyasining Jangovor tartibida qo‘shin qanotlarini himoyalovchi qism mavjud bo‘lgan.

“Tuzuklar”ning yaratilgan davri, muallifi, originalligi xususida bahsli, “Buyurdimki”, “Belgilab qo‘ysinlarki”, – kabi iboralarga tayangan holda asar Sohibqironning saltanat va harbiy boshqaruviga oid amr va farmonlari, buyruqlari jamlangan kitob sanaladi. “Tuzuklar”da barcha vazirlarga katta talablar qo‘yilgan ayni damda sipoh, harbiy ishlar bo‘yicha vazirga ham tegishli: “Kamolotga erishgan vazir ulkim, davlat muomalalarini tartibga keltirib, mulkiy va moliyaviy ishlarni to‘g‘rilik bilan, asli-nasli tozaligini ko‘rsatib, ajoyib tarzda bajaradi. Olgulik joyidan olib, bergulik yerga beradi. Ruxsat etuvchi va taqiqlovchi dushmanlik va jabr-zulm qilmaydi. Xoh sipohdan, xoh raiyatdan bo‘lsin, har kimning nomini yaxshi so‘zlar bilan tilga oladi. Birovdan yomonlik axtarmaydi buyruqlarida uning aslligi bilan toza naslligi ko‘rinib turadi. Amir Temur o‘z qo‘shini va sipohiylarni boshqarish, yangi harbiy yurish usullari takomillashtirish borasida doimiytarzda fikr yuritgan. Jumladan, “Temur tuzuklari”da shunday keltiriladi: “Kunduzlari tajribali va dono kishilar bilan turli mamlakatlarni zabt etish shatranji ustida bosh qotirdim. Kechalari bo‘lsa to‘shagimda yonboshlab olib, mamlakat ishlarini qanday yurgizish kerakligi haqida o‘yladim va ularni bajarish vositalarini o‘zimcha tasavvur qilib ko‘rdim. O‘zga mamlakatlarni zabt etish yo‘llarini o‘z ko‘nglimda chamalab, qay tarzda hujum qilib, qanday chekinish mumkinligini belgilar edim. Qo‘shin tarkibi o‘nlik - “ayl”- “aylboshi”, yuzlik - “xo‘shun”, “qoshun” – uni yuzboshi – “qoshunboshi”, minglik - “hazora”- mingboshi – “mirihazora”, o‘n minglik – “tuman” tumanbegi, “tuman og‘asi” kabi birikmalar va harbiy mansablardan tashkil topgan. Amir Temurning harbiy sohadagi o‘rni o‘z davrining eng ilg‘or strateglaridan biri sifatida baholanishi bejiz emas. U qo‘shin boshqaruvini

markazlashtirish jangchilarning mas'uliyati va intizomini kuchaytirish, harbiy yurishlarni aniq rejalash kabi ko'plab tamoyillarni joriy etgan. G'arb olimlari orasida Amir Temur shaxsiga qiziqish asosan XIX–XX asrlarda kuchaygan. Yevropa tarixchilari uni nafaqat Markaziy Osiyo hukmdori, balki global harbiy strateg sifatida o'rganishgan. Temurning yurishlari Yevropa Yaqin Sharq va Hindiston tarixiga ta'sir qilgani sababli G'arb tarixshunoslari uning harbiy strategiyasini chuqur tahlil qilishgan.

Zamonaviy G'arb olimlari orasida Beatrice Forbes Manz alohida o'rin tutadi. Uning "The Rise and Rule of Tamerlane" asari Amir Temurning harbiy faoliyatini o'rganishda muhim burilish yasagan ilmiy tadqiqot hisoblanadi. Mazkur asarda Temurning harbiy yurishlari tasodifiy bosqinlar emas, balki aniq strategik rejalarga asoslangan siyosiy harakatlar sifatida talqin qilinadi. Manzning tadqiqotlari G'arb tarixshunosligida Amir Temur shaxsiga nisbatan yangi yondashuv shakllanganini ko'rsatadi. Agar ilgari u ko'proq vayronkor bosqinchi sifatida baholangan bo'lsa, endilikda u murakkab siyosiy va harbiy strateg sifatida o'rganilmoqda. Bu esa G'arb ilmiy muhitida Temur faoliyatining qayta baholanish jarayoni yuz berayotganini anglatadi. Shuningdek Manz Temurning harbiy faoliyatini faqat janglar bilan cheklab qo'ymaydi. U harbiy yurishlarni kengroq siyosiy kontekstda tahlil qilib, ularning asosiy maqsadi hokimiyatni mustahkamlash va raqib kuchlarni zaiflashtirishdan iborat bo'lganini ta'kidlaydi. Shu jihatdan Temurning harbiy strategiyasi davlat qurilishi jarayonining ajralmas qismi sifatida baholanadi. Asarda Temur qo'shinining tuzilmasi va boshqaruv tizimi ham muhim o'rin egallaydi. Qo'shin qat'iy tartib asosida tashkil etilgan bo'lib, bu esa janglarda yuqori darajadagi intizom va muvofiqlashtirilgan harakatni ta'minlagan. Zamonaviy G'arb tadqiqotchilari aynan shu omilni Temurning harbiy muvaffaqiyatlarining asosiy sabablaridan biri sifatida ko'rsatadilar. Bundan tashqari G'arb tarixshunosligida Temurning harbiy strategiyasi uning yuqori harakatchan qo'shini bilan ham bog'lanadi. Uzoq masofalarni tez bosib o'tish va kutilmagan zarba berish usuli Temurning janglarda ustunlikka erishishida muhim rol o'ynagan. Bu jihatlar zamonaviy tadqiqotlarda harbiy san'atning ilg'or shakli sifatida baholanadi.

Temurning harbiy faoliyatini o'rganishda psixologik omillar ham e'tibordan chetda qolmaydi. G'arb olimlari uning ayrim hollarda qo'rquv uyg'otish orqali dushman qarshiligini sindirishga erishganini qayd etadilar. Bu holat esa zamonaviy talqinda ongli strategiyaning bir qismi sifatida izohlanadi. Umuman olganda Beatrice Forbes Manz tadqiqotlari G'arb tarixshunosligida Amir Temur shaxsining yangi ilmiy talqinini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Uning asari Temur faoliyatini

biryoqlama baholashdan voz kechib uni murakkab tarixiy shaxs sifatida o‘rganishga yo‘l ochdi.

Xulosa qilib aytganda Amir Temur harbiy faoliyatining G‘arb tarixshunosligida o‘rganilishi uning shaxsiga nisbatan qarashlar evolyutsion tarzda o‘zgarib borganini ko‘rsatadi. Zamonaviy tadqiqotlarda, xususan Beatrice Forbes Manz ishlarida, Temurning yurishlari tasodifiy bosqinlar emas, balki aniq strategik va siyosiy maqsadlarga yo‘naltirilgan jarayon sifatida talqin etiladi. Natijada, u G‘arb ilmiy muhitida murakkab tarixiy shaxs va yuksak darajadagi harbiy strateg sifatida e’tirof etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Beatrice Forbes Manz. *The Rise and Rule of Tamerlane*. Cambridge: Cambridge University Press, 1989.

2. Justin Marozzi. *Tamerlane: Sword of Islam, Conqueror of the World*. London: Harper Collins, 2004.

3. Jean–Paul Roux. *Tamerlan:* Fayard, 1991.

4. Amir Temur. *Temur tuzuklari* (tarixiy manba, tarjimalar asosida), Toshkent: O‘zbekiston, 2011.

5. Maria Eva Subtelny *Timurids in Transition: Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran*. Leiden: Brill Publishers, 2007.